

Date: 17<sup>th</sup> November-2024

**JAMIYATDA JINOYAT O'CHOQLARINING YUZAGA KELISHINING ASOSIY SABABLARI ,OMILLARI HAMDA SHART-SHAROITLARI**

**Salohiddinov Shohijahon G'ayrat o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 3-o'quv kursi 316-guruh kursanti

**Annotatsiya:** Hududlarda huquqbuzarliklar turli noqonuniy xatti-harakatlar jinoyatlar eng ko'p sodir bo'ladigan ,ma'muriy hududlarda aholining ijtimoiy hayot darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan hudud jinoyat o'choqlari bo'lib hisoblanadi. Jinoyatlarning dastlabki ko'rinishlari huquqbuzarlik shaklida namoyon bo'ladi. Jinoyatlar paydo bo'lishiga turli sabablar va sharoitlar imkon beradi, omillar esa sodir bo'lishiga motivni shakllantirib beradi.

**Kalit so'zlar:** jinoyat, jinoyat o'choqlari, kriminogen holat, obyektiv sabablar, subyektiv sabablar, omillar.

**Аннотация:** правонарушения в регионах различные противоправные деяния очагами преступности считаются территории ,где чаще всего совершаются преступления, отрицательно влияющие на уровень общественной жизни населения в административных районах. Первоначальные проявления преступлений проявляются в форме правонарушений. Возникновению преступлений позволяют различные причины и обстоятельства, а мотивацию к их совершению формируют факторы.

**Ключевые слова:** преступность, очаги преступности, криминогенная обстановка, объективные причины, субъективные причины, факторы.

**Annotation :** Areas where violations and various illegal acts occur most frequently, and areas that have a negative impact on the social life of the population in administrative areas are considered hotbeds of crime. The initial manifestations of crimes are manifested in the form of violations. Different reasons and conditions allow the appearance of crimes, and factors form the motive for their occurrence.

**Key words :** crime, crime foci, criminogenic condition, objective causes, subjective causes, factors.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining samarali faoliyati natijasida mamlakatda huquq-tartibot mustahkamlanib, kriminogen vaziya tsezilarli darajada yaxshilandi. Bu esa fuqarolarning tinch va osoyishta hayot kechirishini ta'minlamoqda.<sup>5</sup> Huquq-tartibotni mustahkamlash , aholining tinchligini ,jamoat tartibi hamda jamoat xavfsizligini ta'minlashda jinoyatlarni , jinoyatchilikni oldini olish va unga qarshi kurashish bugungi kunning dolzarb mavzularidir, jumladan jinoyat o'choqlari shular jumlasidan biri hisoblanadi. Huquq-tartibotni mustahkamlash , aholining tinchligini ,jamoat tartibi hamda

<sup>5</sup> Huquqbuzarliklar profilaktikasi darslik. Toshkent:-2021.3-b.



Date: 17<sup>th</sup> November-2024

jamoat xavfsizligini ta'minlashda jinoyatlarni , jinoyatchilikni oldini olish va unga qarshi kurashish bugungi kunning dolzarb mavzularidir, jumladan jinoyat o'choqlari shular jumlasidan biri hisoblanadi.

Kriminologiya predmetlaridan muhim tadqiqot mavzusi bo'lgan – jinoyat o'choqlari doimo o'rganib kelinadigan, ijtimoiy xavfli , tarixiy o'zgaruvchan ijtimoiy huquqiy hodisa sifatida ta'riflanadi.

Jamiyatda hech qanday hodisa yoki biror- bir jarayon o'z o'zidan sodir bo'lmaydi. Borliq va ijtimoiy munosabatlar ta'siri, ichki va tashqi sabablar va imkoniyatlar asosida paydo bo'lib rivoj topadi. Falsafiy nuqtayi nazaridan , jinoyat va jinoyatning sabablari. shart-sharoitlari, unga imkon beruvchi omillar, jinoyat urchigan hududlar- jinoyat o'choqlari ham, bugun yoki kecha paydo bo'lgan tushunchalar emas. Jinoyatlar o'zining usullari, xavflilik ko'rinishlarini o'zgartirib kelayotgan bo'lsa jinoyat o'choqlari ham shunday xavflilik xususiyatlarini o'zida namoyon etadi. Jinoyat o'choqlarini ta'riflaydigan bo'lsak- ma'lum bir vaqt davomida ma'muriy hududlar , huquqbuzarlik va jinoyatlarning boshqa hududlarga nisbatan ko'p ko'rsatkich qayd etilishi hamda ijtimoiy-huquqiy salbiy oqibatlarini keltirib chiqaruvchi barqaror vaziyatga salbiy ta'sir qiluvchi ijtimoiy-xavfli hududlar hisoblanadi. Jinoyat o'choqlari quyidagi salbiy belgilarni o'zida namoyon etadi hamda ajralib turadi:

-muayyan hududda , ma'lum bir vaqtda huquqbuzarlik hamda turli ko'rinishlardagi jinoyatlar avj olgan hududlar;

-obyektiv huquqiy hodisa ekanligi;

-ijtimoiy xavfli hodisa ekanligi;

-huquqiy hodisa ekanligi;

-tarixiy, o'zgarib turadigan hodisa ;

-aholining barqaror turmush-tarziga zarar beruvchi bir qancha xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Jinoyat o'choqlarining har qanday ko'rinishlariga zarba berishda hamda jinoyatchilikni oldini olishda eng avvalo, unga qanday sabablar hamda shart-sharoitlar imkon berayotganini aniqlab, to'g'ri o'rganib zarur kuch va vositalarni, profilaktik chora hamda tadbirlarni yo'naltirishda asosiy tub mohiyat muhim rol o'ynaydi. Ma'muriy hududlarning jinoyat o'choqlariga aylanib qolishining oldini olishda sabablar hamda shart-sharoitlarni aniqlash ayni vaqtda murakkab ammo samarali jarayon ekanligini anglatadi. Aynan ushbu jinoyat o'choqlarining sabablarini o'rganishda ushbu sabablarni , kamchilikni o'rganib uni taqozo etuvchi omillarni tadqiq etib, profilaktik vazifalarni adolatli amalga oshirish amaliyotga tadbiriq etish huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati uchun muhim hamda samarali usullardan biri bo'lib hisoblanadi.

Jinoyat o'choqlarining sabablari hamda sharoitlari unga ta'sir qiluvchi boshqa ijtimoiy hodisalar murakkab jarayon bo'lib, nafaqat hudud , hududning aholisi, demografik vaziyat, ijtimoiy hayot darajasi, hokimiyat organlarining mansabdor shaxslari faoliyat jarayonlari, ta'lim muassasalari, ijtimoiy sog'lom muhit va hokazo omillar ta'sir qiladi. Jinoyat o'choqlarini paydo bo'lishiga aynan bir xil va konkret determinantlar



Date: 17<sup>th</sup> November-2024

(sabablar) sharoit yaratmaydi. Jinoyat o'choqlari bir qancha determinantlar asosida paydo bo'ladi, jumladan:

- Iqtisodiy;
- Demografik;
- Ijtimoiy;
- G'oyaviy;
- Ijtimoiy-ruhiy;
- Tashkiliy-boshqaruv;
- Siyosiy; shu kabi va boshqa omillar zahirida yuzgaa keladi. Yuqorida aynan sabablar sanab o'tildi.

Iqtisodiy shart-sharoitlarga (pulning qadrsizlanishi, iste'mol buyumlar tanqisligi, ishsizlik, qonun doirasidan tashqarida bo'lgan hamda taqiqlangan moddalar spirtli ichimlik sotiladigan do'konlar ko'pligi, giyohvandlik va psixotrop moddalar savdosi bilan shug'ullanuvchi narkobiznes bilan shug'ullanuvchilar mavjudligi)

Siyosiy sabablar hamda shart-sharoitlar ( globallashuv , hududga kirish hamda chiqish jarayonlarining tez sur'atlarda amalga oshirilishi, konstitutsion tuzumga dushmanlik munosabatidagi hokimiyatga intiluvchilar va hokazo)

G'oyaviy-ma'naviy sabablar ( axborotning turli shakllardagi xurujlari , ommaviy madaniyat, turli yot diniy (aslida siyosiy maqsad ko'zlangan soxta oqimlar) firqalar, g'oyaviy-tarbiyaviy ishlardagi yo'l qo'yilgan kamchilik va xatolar va h.k)

Ijtimoiy-ruhiy sabablar (ayrim toifa shaxslarning xudbinlik oqibatida yuz beradigan korrupsion holatlar, g'arazgo'ylik oqibatida paydo bo'ladigan loqaydlik befarqlik, manfaatparastlik o'z "men" nini ustun qo'yish oqibatida shaxsiyatparastlik)

Tashkiliy – boshqaruvga oid sabablar hamda shart-sharoitlar ( jamiyatning muhim sohalar iqtisodiy va xo'jalik ish va bandlik bilan bog'liq yo'l qo'yilayotgan xatolar, turli rasmiy holatlarda sodir bo'ladigan nosamimiy munosabatlar, aholining norozilik kayfiyatining paydo bo'lishi, ayrim shaxslarning qonunlarga jamiyatda o'rnatilgan mavjud normalarga nisbatan bee'tiborlik holatlari, huquqbuzarliklarni hamda oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini tashkil etishda yuz berayotgan kamchiliklar) huquqiy sohaga oid bo'lgan sabablar va shart-sharoitlarga ( yuridik normalarda ba'zan uchrab turadigan yuridik kolliziyalar mavjudligi, jamiyatning ayrim sohalariga oid bo'lgan ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning tartibga solinmaganligi, qonunlarni bir xilda va to'liq ijro etilishidagi kamchiliklar, qonuniy yo'lni aylanib o'tish hodisalari, huquqiy bo'shliqlarning mavjud normalar bilan o'z vaqtida tartibga solinmaganligi, ba'zan uchrab turadigan g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga chora ko'rilmaganligi, bartaraf etilmaganligi).

Sabablar va shart-sharoitlarni doimo bir – birini to'ldiruvchi terminlardir. Har bir sabablar jinoyat o'choqlarining yuzaga kelishiga, aholida jamiyatga zid bo'lgan fe'l-atvorni so'ngra xatti-harakatni yuzaga keltiruvchi subyektiv omillarni keltirib chiqaradi, kuchaytiradi, rivojlantiradi.

Subyektiv shart-sharoitlar- har qanday jamiyatda shaxslarda paydo bo'ladigan, jinoyat sodir qilinishining asosini tashkil etuvchi ijtimoiy-psixologik hodisalardir. Ushbu



Date: 17<sup>th</sup> November-2024

subyektiv hodisalar motiv,niyat,maqsad,ko'nikmalar hisoblanadi. Subyektiv shart-sharoitlar jamiyatda istiqomat qiluvchi odamlarning ongida shakllanib so'ngra ularning harakatlariga ta'sir qiluvchi obyektiv sharoitlardan ozuqalanuvchi, ma'lum bir vaqt davomida, fikr hamda g'oyalar birlashuvi hosilasidir,Subyektiv sabablar bir qancha hamda xilma-xil ,chunki insonlarning fikrlari ham borliqda shunday xilma xillikka ega, ushbu fikrlar , g'oyalar so'ngra g'ayriijtimoiy,noqonuniy,faoliyat paydo bo'lishiga turtki vazifasini bajaradi.Fikrlar esa odamlarni g'oya asosida birlashtirib jinoyatlar turli normalarga va qonuniylikka zid bo'lgan harakatlar sodir etishiga olib keladi.

Obyektiv sabab hamda shart-sharoitlar – subyektiv shart-sharoitdan farqli ravishda, ammo uni to'ldiruvchi shaxsdan tashqarida bo'lgan, ya'ni borliq atrofda inson bilan uzviy bog'liqlikda yuzaga keluvchi, ijtimoiy salbiy hodisalar , obyektiv nuqtayi nazardan ushbu sabablar odamlar psixologiyasiga ta'sir qiladi, jumladan , ijtimoiy adolatsizlik yuz bergan hududlarda keskin ravishda aholining norozilik kayfiyati paydo bo'lishi, nazorat sust bo'lgan hududlarda turli yot g'oyalar kirib kelishining kuchayishi va insonlar ongini egallab olishi g'oyaviy bo'shliq mavjudligi sabab ,chegara hududlarda esa turli ko'rinishlarda giyohvandlik moddalari kirib kelishi ,loqaydlik mavjud bo'lgan joylarda jinoyatlarning og'ir ko'rinishlari yuz berishi va hokazo sabablar tashqi omillar sabab ichki barqaror jamiyatning tinch hamda osuda hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatib jinoyatlarning ko'payib ketishi zamirida jinoyat o'choqlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Mavjudligi nuqtayi nazaridan ushbu obyektiv sabab hamda shart-sharoitlar inson irodasiga bog'liq emas, biroq tashqi doiradagi yuz berayotgani uchun ham jinoyat paydo bo'lishiga zamin yaratadi.Inson ongi,tafakkuri hamda uning xohishi bilan bog'liq bo'lmagan faqat borliq atrofda yuz beruvchi jarayonlar barchasi obyektiv shart-sharoitlar hisoblanadi.Jamiyatning evolutsion bosqichida inson rivojlanib,kamol topib borgani sari uning ongi hamda fiziologiyasida o'zgarishlar rivojlanib borgan sari obyektiv hamda subyektiv omillar ham o'zgari,taraqqiy topib bordi. Hozirgi kunda ushbu ming yillik tarixiy o'zgaruvchan sharoitlar yana ham kurtak yozib,tamaddunning bosqichlaridan ildam odimlab ketmoqda. Jamiyat hamda ijtimoiy munosabatlar taraqqiy topgani sari ya'ni obyektiv shart-sharoitlar rivojlangani sari inson ya'ni subyektiv shart-sharoitlar ham shaxs xususiyatlarida , psixologiyasida ham o'zgarib boraveradi. Jinoyat o'choqlari nafaqat boshqa jinoyatchilikni bartaraf etishda , eng avvalo, oldini olishda obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarga to'g'ri baholab, yondoshmoqlik ko'zlangan maqsadni ro'yobga chiqarishda samarali ta'sir ko'rsatadi. Vaqt va makonni hisobga olganda ma'lum bir davrda doimiy yoki beqaror siyosiy,ijtimoiy jarayonlar oqibatida ham o'zgarib boraveradi,ushbu omillar jinoyat o'choqlarining batamom barham topishiga yoki yana ham kuchayib ketishiga olib kelishi mumkin.Tarixiy voqealarga nazar tashlaydigan bo'lsak, hokimiyat ko'p holatlarda kuch va turli tashqi dushmanlaryoki muxolifat radikalistlar tarafdan egallanganda jamiyat bir muddat siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy boshboshdoqlik oqibatida bir muddat jinoyat o'choqlarining paydo bo'lishiga, jinoiy uyushmalar ( Sitsiliya mafiyasi,Yapon yakudzasi, Xitoy triadasi, AQSH gangsterlari ) jinoyatchilik kuchayib ketishiga olib kelgan.



Date: 17<sup>th</sup> November-2024

Jinoyat o'choqlari paydo bo'lish hududiylik nuqtayi narardan qishloq, tuman, shahar, va aholi ko'p istiqomat yoki aksincha ancha markazdan uzoqda bo'lgan ma'muriy hududlarda paydo bo'lishi mumkin. Obyektiv hamda subyektiv sabablar bir biridan farq qiluvchi ammo doimo to'ldiruvchi ijtimoiy sabablar hamda rivojlanib boruvchi shaxs, hodisa, voqea holatlarida namoyon bo'luvchi omillardir.

Jinoyat o'choqlarining paydo bo'lishida demografik nuqtayi nazardan e'tibor qaratish ham muhim jarayon hisoblanadi, chunki aholi to'g'risida doimiy muhim statistik ma'lumotlar qayd etib boriladi quyidagi yo'nalishlarda o'rganiladi : huquqbuzarlik profilaktikasi faoliyati ,kriminologiya ,viktimologiya va bir qancha sohalarda asosiy tadqiqotlar olib boriladi, sababi hududlarda turli ijtimoiy sur'atlarda yashovchi, turli kasb egalari, millat vakillari, huquqiy jihatdan turli ixtisoslik vakillari istiqomat qiladilar. Demografik ma'lumotlar bugungi kunda har bir hududlarning passportlarida aks etadi aynan ushbu ma'lumotlar juda muhim sanalib, sabablarni bartaraf etishda samarali choralar ishlab chiqishda qo'l keladi jumladan , jinoyat o'choqlarida kimlar eng ko'p jinoyat subyektlari ularning yosh va aqliy faoliyatlari ham bir qator hisobga olinib, oldini olishda qarshi kurashish choralarini belgilashda muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Jinoyat o'choqlarini bartaraf etishda jumladan, jinoyatlar turli huquqbuzarlik mahkumlar orasida yoki voyaga yetmagan yoshlar orasida , ayollar o'rtasida, ma'lum bir mehnat faoliyat bilan band bo'lmagan ishsiz bo'lgan erkaklar orasida, mansabdorlik jinoyatlari, oila-turmush doirasida yaqin qarindoshlar o'rtasida, muayyan ixtisoslik (mutaxassislik) kasb vakillari o'rtasida va shu kabi sabablarni ta'kidlashimiz mumkin. Jinoyat o'choqlarini sabab hamda shart –sharoitlarini tavsiflashda aniq va konkret omillarni ko'rsatib bo'lmaydi, sababi ushbu sabablar bir birini taqozo etuvchi kompleks hodisa ekanligi ilmiy nuqtayi nazardan isbotlangan.

Omillar – o'zbek tilining izohli lu'gatida omil: ish –harakat, voqea-hodisa lar ning yuzaga chiqishi, sodir bo'lishi uchun sabab bo'lgan narsa; sabab, jarayon, shart-sharoit va shu kabi ma'nolarni anglatadi. Sabab va omillar o'zaro sinonim so'zlar sifatida baholanishi ham mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, ushbu jinoyat o'choqlarining sabab va shart-sharoitlarini hamda omillarini o'rganish muhim tadqiqot mavzusi sanaladi. Mazkur tasniflab o'rganish huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida muhim metod sanaladi, zero jinoyat o'choqlarini oldini olishda uning har qanday ko'rinishlarini bartaraf etishda sabablarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi, sabablarni to'g'ri aniqlash , uning zaruru tasnifiy guruhini o'rganish zarur profilaktik chora – tadbirlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi , qayerlarda , qaysi vaqtda ish ko'rish kerakligi qanday amalga oshirishga yordam beradi, bir qator amaliy ahamiyatga ham ega hisoblanadi. Bir sababni aniqlash zanjir kabi boshqa bir sababni topishda muhim ahamiyat kasb etadi, ta'sirini kamaytirishga yordam beradi.

Jamiyatni turli yot illatlardan jinoyat o'choqlari kabi botqoqliklardan tozalashda huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida krimilogik tavsiflash juda ham muhim, kasallikni davolagandan ko'ra unga barvaqt oldini olish uchun harakat qilish



Date: 17<sup>th</sup> November-2024

samaraliroqdir. Jamiyatda shunday illat o'choqlaridan tozalashda ham har bir sabab o'rganilib, tadqiq etib boriladi. Kriminolog olimlar ushbu determinantlarni aniqlashda zarur ilmiy faoliyat jarayonlarini, izlanishlarni olib boradilar, o'rganadilar. Jinoyat o'choqlarini oldini olishda har bir determinantlar qanchalik sinchkovlik, alohidalik bilan o'rganilsa shuncha samarali, mufassallik va aniqlik ortib boraveradi. Tizimli, to'g'ri zarur profilaktik choralar ko'zlangan maqsadni tez fursatda hamda natijasini ta'minlashda muhim omil sifatida baholanadi.

Kriminologik nuqtayi nazardan aniqlangan sabablarning oqibatlari, omillar ta'siri, shart-sharoitlarning aniq tasnifi kelgusida qayerlarda jinoyat o'choqlari paydo bo'lishiga va qanday bartraf etish choralari topishda alosiy prognoz (bashorat qilish)ga yordam beradi. Jinoyat o'choqlari va jinoyatchilik bilan bog'liq bilimlarni yanada rivojlantirishga zamin yaratadi. Hududlarda paydo bo'layotgan jinoyat o'choqlarida aynan qanday jinoyatlar yuz berishiga qarab jinoyatlarga jazo choralari yumshatish yoki kuchaytirish, javobgarlikning turlari bilan bog'liq yanada huquqiy ta'sir choralari takomillashtirishni taqozo etadi. Jinoyat o'choqlarida qaysi toifadagi shaxslar tomonidan jinoyatlar sodir etilishi shaxs bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarga oydinlik kiritishda muhim rol o'ynaydi. Jinoyat o'choqlarida sodir etilayotgan jinoyatlarni to'g'ri malakalab, protsessual majburlov choralari qo'llash esa aynan sabab hamda shart-sharoitlar bilan uzviy bog'langan bo'lib, protsessual choralarning asosli qo'llanilishi va huquqiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Jinoyat o'choqlarining har qanday ko'rinishlari jamiyatning barqaror vaziyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kriminogen holatlarga belgilangan huquqiy hamda protsessual choralar o'zining har tomonlama xolis, odilona ekanligini isbotlashi lozim. Jinoyatlarni oldini olishda ularning har qanday shakllari, turlari fosh etishda kriminologiyaning hamda viktimologiyaning o'rni beqiyos, jumladan jinoyat o'choqlarida ma'nau va jismonan zarar ko'rayotgan shaxslar toifasini aniqlab zarur tadbirlarni amalga oshirishda determinantlar, omillarning ijtimoiy hamda huquqiy ahamiyati, nazariy va amaliy jarayonlarning uyg'unligini aks ettirib, amaliy faoliyat jarayonlarida o'z samarasini, farovon hamda tinch – totuvlikni ta'minlashda namoyon etib kelmoqda. Kriminologiyaning tadqiqot predmetlaridan biri bo'lgan jinoyat o'choqlarining asosiy sabab shart-sharoit omillarini to'g'ri tadqiq qilib o'rganish nafaqat ushbu fanning balki jinoyat huquqi, huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati, jinoyat protsessual huquqi, jinoyat – ijroiya huquqi, ma'muriy huquq kabi bir qancha huquqiy fanlar rivoji uchun ham xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Murojaat vaqti : 24.10.2024-yil
2. Kriminalogiya Umumiy qism: Darslik / I. Ismailov, Q.R. Abdurasulova va I.Y. Fazilov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015.-79, 81, 83 b. Murojaat vaqti : 24.10.2024-yil



**Date: 17<sup>th</sup> November-2024**

3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi // URL: <http://www.lex.uz>. Murojaat vaqti : 24.10.2024-yil.

4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // URL : [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz). Murojaat vaqti : 24.10.2024-yil.

5. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi // URL : <http://www.lex.uz>. Murojaat vaqti : 24.10.2024-yil.

6. Huquqbuzarliklar profilaktikasi darslik. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. Murojaat vaqti : 24.10.2024-yil.

